



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

SamVPMM Kengashining 2025-yil 9-oktabrdagi navbatdan tashqari 5-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

SamVPMM Kengashining 2025-yil 9-oktabrdagi navbatdan tashqari 5-sonli yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman**:

1. SamVPMM Kengashining 9-oktabrdagi navbatdan tashqari 5-sonli yig'ilish qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM Kengashi qarorlarida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor v.b



A.Sobirov

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
9-oktabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

*2025-yil 9-oktabr
Samarqand shahri*

5/1-son

Kasbiy va pedagogik, pedagogik, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ishchi reja, dastur hamda o'quv metodik materiallarini tasdiqlash to'g'risida.

SamVPMM akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "Kasbiy va pedagogik, pedagogik, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ishchi reja, dastur hamda o'quv metodik materiallarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son hamda Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrda 867-son qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarining rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 30-sentabrdagi 367-son buyruqlariga asosan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida quyidagi yo'nalishlarda qayta tayyorlov guruhleri ochilishi rejalashtirilmoqda:

1. Matematika kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548 soat)
2. Matematika kasbiy qayta tayyorlov (972 soat)
3. Boshlang'ich kasbiy qayta tayyorlov (972 soat)
4. Texnologiya kasbiy qayta tayyorlov (972 soat)
5. Biologiya kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548 soat)
6. Ingliz tili pedagogik qayta tayyorlov (576) soat
7. Ingliz tili kasbiy qayta tayyorlov (972 soat)
8. Rus tili kasbiy qayta tayyorlov (972 soat)

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 30-sentabrdagi 367-son buyrug'i bilan tasdiqlangan tayanch o'quv reja asosida o'quv dasturlar ishlab chiqildi. Kurslarning o'quv rejasiga muvofiq yo'nalishlar kesimida testlar, bitiruv malakaviy ish mavzulari shakllantirilmoqda.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonovanning "Kasbiy va pedagogik, pedagogik, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ishchi reja, dastur hamda o'quv metodik materiallarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. SamVPMMning barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- SamVPMMda 2025-2026-yillarda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan kasbiy va pedagogik, pedagogik, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ishchi o'quv dasturi, o'quv-metodik majmualari, kontentlarini tasdiqlash;

- SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ishchi o'quv dasturi, o'quv-metodik majmualarining Davlat ta'lim standartlari, 2025-2026-yilgi o'quv rejaga mos bo'lishini ta'minlash;

- nazorat testlari belgilangan talablarga javob berishi, tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga imkon yaratilishi inobatga olinsin.

3. Mazkur qaror ijrosi akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova zimmasiga yuklansin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

SamVPMM Kengashi raisi


A.Sobirov

SamVPMM Kengashi kotibi


D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
9-oktabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 9-oktabr

5/2-son

Samarqand shahri

SamVPMMda yo'nalishlar kesimida loyiha ishi va mikrodars mavzularini yangilash hamda qabul qilish shaklini o'zgartirish to'g'risida.

SamVPMM direktori A.Sobirovning "SamVPMMda yo'nalishlar kesimida loyiha ishi va mikrodars mavzularini yangilash hamda qabul qilish shaklini o'zgartirish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM direktori A.Sobirov so'zga chiqdi: – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 28-yanvarda 23-sonli buyrug'ining 1-ilovasida, ya'ni "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlari malakasini oshirish sifatining ichki nazorati to'g'risida"gi Nizomning bandlarida barcha talablar alohida yoritib berilgan. Nizom talablaridan kelib chiqqan holda loyiha ishi va mikrodarslar yo'nalishlar kesimida tasdiqlangan mavzular asosida taqsimlanishi hamda oy oxirida elektron shaklda (loyiha ishi va mikrodars matni va taqdimoti) qabul qilinishi, loyiha ishi va mikrodars mavzularini 3 nafar tinglovchiga bitta shaklda berish, himoyadan bir hafta oldin komissiya tarkibini tasdiqlash lozim. Yo'nalishlar kesimidagi qaydnomalar tasdiqlangan shaklda ikki kun oldin kafedralarga yetkazilib, yakuniy attestatsiya bo'lib o'tgan kuni qaydnomalar bo'lim tomonidan qabul qilib olinadi. Guruhlar bo'yicha qabul qilingan ishlar, yig'ma holda ta'lim sifati nazorat bo'limiga topshiriladi.

Shuningdek, loyiha ishi va mikrodarslar mavzulari maktab darsliklari, ta'lim sohasidagi bugungi kunning dolzarb mavzulari asosida shakllantirilib, yangilanishi hamda mavzular bankini yaratish zarur bo'ladi.

SO'ZGA CHIQDI: Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini professori P.Davronov – tinglovchilar loyiha ishi va mikrodarslarni tayyorlashda ijodiy yondashishi, texnik, uslubiy, imloviy xatolariga jiddiy e'tibor qaratishi kerak. Ana shunda Pedagogik mahorat markaziga borib, kasbiy rivojlanadim, degan xulosaga kelishi mumkin. Bu jarayonga kafedra mudirlari va guruh mas'ullari ham alohida e'tibor berishlari zarur.

SO'ZGA CHIQDI: Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i J.Abduraxmonov – loyiha ishi va mikrodarslarni bir oy sinov asosida guruhlardan elektron shaklda qabul lozim, agar yaxshi natija bersa shu holda davom ettirish lozim.

Yuqoridagilar muhokama etildi va SamVPMM Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. SamVPMM direktori A.Sobirovning "SamVPMMda yo'nalishlar kesimida loyiha ishi va mikrodars mavzularini yangilash hamda qabul qilish shaklini o'zgartirish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova va barcha kafedra mudirlariga:

- barcha yo'nalishlar kesimida loyiha va mikrodars mavzularini yangilash hamda mavzular bankini yaratish;
- loyiha ishi va mikrodars mavzularini 3 kishidan iborat guruhlarda taqsimlash;

- yo'nalishlar kesimidagi loyiha ishi va mikrodarslarni elektron shaklda (bir oy sinov muddatda) qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Barcha o'nalishlar kesimidagi loyiha ishi va mikrodarslarni elektron shaklda qabul qilish ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i Z.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosi akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari Y.Ne'matjonova zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

SamVPMK Kengashi raisi

A.Sobirov

SamVPMK Kengashi kotibi

D.Yunusova



**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
9-oktabrda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 9-oktabr

5/3.1-son

Samarqand shahri

SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida.

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Kengashi a'zolari tarkibi quyidagicha:

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashi a'zolari
RO'YXATI**

№	Familiyasi, ismi sharifi	Ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi
1	Sobirov Anvar Kuvandikovich	Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, Kengash raisi
2	Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna	Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
3	Murodov Sarvar Saydullo o'g'li	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari (a'zo)
4	Raximqulova Maxbuba Baxranovna	Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri (a'zo)
5	Tagayev Ganisher Xasanovich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
6	Samyayev Anvar Qadirovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
7	Davronov Pirnazar Ziyatovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini professori (a'zo)
8	Usmonov Bahodir Islomovich	Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini dotsenti (a'zo)
9	Haydarov Komil Donoboyevich	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini v.b.professori (a'zo)
10	Kandaxarov Mirjalol Abdimurot o'g'li	Ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassis va Markaz kasaba uyushmasi kengashi raisi (a'zo)
11	Soyipova Dilafruz Raximovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri (a'zo)
12	Axmedov Anvar Diyor o'g'li	Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri (a'zo)
13	Pardayev Zafar Shukurovich	Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i (a'zo)
14	Fayziyeva Mutabar Mardonovna	Fanlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
15	Bekmirzayev Hasan Safarovich	Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i (a'zo)
16	Xujakulov Sherzod Amankulovich	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
17	Ashurova Barno Nematovna	Inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis (a'zo)
18	Norov Bobir Baxriddinovich	Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limi boshlig'i (a'zo)

19	Abdullayev Abdullo Abduxakim o'g'li	Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
20	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i (a'zo)
21	Yunusova Durdona Axtamovna	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti (kengash kotibi)

SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovaning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti tinglandi.

Yuqoridagi jadvalda berilgan ro'yxatga asosan, kengash 21 nafar a'zo bilan ishni davom ettiradi.

SamVPMM Kengashi raisi A.Sobirov – ushbu masala bo'yicha savollar, fikrlar bo'lsa marhamat.

Ushbu masala atroflicha muhokama etilib SamVPMM Kehgashi

QAROR QILADI:

1. SamVPMM Kengashi kotibi D.Yunusovaning "SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. SamVPMM Kehgashi 21 nafar a'zo bilan ishni davom ettirsin.

SamVPMM Kengashi raisi

A.Sobirov

SamVPMM Kengashi kotibi

D.Yunusova

